



The Significance of Mahmud Shabistari's Work "Gulshani Roz" in the Formation of Images and Symbols in Sufi Literature

Feruzabonu MANNONOVA¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

Sufism,
image,
emblem,
symbol,
reality,
theology,
pictorial expression.

ABSTRACT

The work *Gulshani Raz* is recognized worldwide as a masterpiece that encompasses contributions from mystics, philosophers, historians, and linguists from across the globe, uniting their perspectives within a single framework. As previously noted, the work's value is enhanced by numerous aspects, with the poetics of its imagery holding a particularly significant place.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp377-382>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahmud Shabistariyning "Gulshani Roz" asarining tasavvuf adabiyotidagi obraz va ramzlar shakllanishidagi ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tasavvuf,
obraz,
timsol,
ramz,
reallik,
ilohiyot,
tasviriy ifoda.

"Gulshani Roz" asari butun dunyo tasavvufshunoslari, faylashuflari, tarixchiyu – tilshunslarini chetlab o'tmagan va barchani bir nuqtada jamlay olgan bir durdona asar sifatida dunyo tamaddunida gavlanadi. Asarning qiymatining oshiradigan jihatlari juda ko'pligini biz aytib o'tdik, shulardan asardagi obrazlar poetikasi alohida o'rin tutadi.

¹ Senior Teacher, Department of the Integrated English Course № 3, Uzbekistan State University of World Languages.

Значение работы Махмуда Шабистари «Гулшани Роз» в формировании образов и символов в суфийской литературе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Суфизм,
образ,
эмблема,
символ,
реальность,
теология,
изобразительное
выражение.

Творение «Гулшани Роз» признано шедевром мировой культуры, объединяющим мистиков, философов, историков и лингвистов со всего мира. Оно сумело собрать этих выдающихся мыслителей в единой точке соприкосновения. Как уже отмечалось, произведение обладает множеством аспектов, повышающих его ценность, среди которых особое место занимает поэтика образов.

KIRISH

Mahmud Shabistariyning o'ziga ko'ra, "Gulshani Roz" – bu masnaviy, uning birinchi she'riy asaridir. Turli ro'yxatlariga ko'ra, she'rning hajmi 958 dan 1007 baytgacha versiyalari mavjud. Asarda allegoriya va metaforadan uslubidan foydalangan holda Xudoning haqiqatini tushunish yo'lida bo'lganlar uchun musulmon tasavvuf ta'limotining turli xil yashirin sirlarni hisobga olgan holda yaratilgan. Bu she'r darhol so'fiylar orasida katta muvaffaqiyat qozondi va tasavvuf nazariyasi va uning falsafasi haqidagi eng muhim bilimlar manbai bo'ldi [11].

Umuman olganda, tasavvuf va tasavvuf adabiyotini to'liq yoritib bergan Bertels ham o'z ishlarida Rumiy she'riyati va Mahmud Shabistariyning "Gulshani Rozi"ga ko'plab etkan. Ya'nikim, Bertels o'zining "Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti" asarida tasavvuf adabiyoti obrazlarining mukammal tavsifini beradi.

U obrazlar klassifikatsiyasiga to'xtalar ekan, avvalambor Xudo sur'atidan boshlab ifoda bera boshlaydi. Taqvodorlar uchun Xudoning obrazi – har bir insonning xatti-harakatlarini, uning har bir ruhiy harakatini kuzatuvchi qo'rqinchli hakam deya ta'rif beradi [5].

NAZARIY QISM

E. Bertels so'fiylik terminologiyasini bir qancha so'fiy atamalarining lug'atlari matnlaridan foydalanib turli manbalardagi misollar yordamida o'rganishni maqsad qilgan. Masalan, Hudo obrazidan tashqari, Bertels "kokil va yuz", sahoblara, murid va valiy obrazlariga ham "Fors so'fiylarining she'riy terminologiyasiga oid qaydlar" bo'limida atroflicha yoritgan.

O'rganishlar davomida diqqat markaziga asosiy vazifa yangi badiiy obrazlarni yaratish orqali yangi materialni kiritishdan ko'ra, mavjud materialdan muammolarni aniqlash, tushuntirish ma'nosida iloji boricha yaxshiroq foydalanish va tasavvuf falsafasi muammolarini oydinlashtirishga aylanish keladi [5]. Bundan ma'lum bo'ladiki, tasavvuf she'riyatidagi obrazlar nafaqat oddiy obraz bo'libgina qolmasdan, chuqur falsafiy ma'no va ramziy qoliplarga ega bo'lmog'i lozim. Bunday ramziy qoliplar va falsafiy ma'nolarni aniq tavsiflash va tasniflash obrazlarning o'rganilish ko'lamini kengaytiradi va kelasi natijalarni olishga yordam beradi.

San'at va adabiyotda obraz deyilganda, inson nazarda tutilar ekan, demak u ijodkorning maqsad va muddaosini ifoda etuvchi kishi tasviri bo'ladi. Xattoki asosiy qahramonlari hayvonlar bo'lgan masallarda ham obrazda inson timsoli gavdalanadi. Shuningdek, badiiy obraz inson timsolidan tashqari, ijodkor foydalangan turli ko'chma ma'noli tushunchalar, abstrakt otlar bo'lishi ham mumkin [3].

Boshqa bir manbaga ko'ra, "asarda qimirlaganki inson obrazi bo'lsa – katta yo kichikiigi, syujetdagi ishtiroki, asar strukturasi tutgan o'midan qat'i nazar – hammasini personaj deb atash mumkin. Sababi, bu termin qahramon, ishtirok etuvchi, xarakter terminlari bilan bitta sinonimik qatomi tashkil qiladi va neytral ma'nosi bilan dominanta vazifasini o'taydi" deb ta'rif beriladi.

Biroq tasavvuf adabiyotiga kelganda, obrazlar tushunchali aksariyat hollarda ramz va timsollar bilan bog'liq bo'ladi. Tasavvufning o'zi ilohiyot va reallik o'rtasidagi yo'l bolganidek, Sufiy adabiyotida ham realistik va ilohiy – majoziy obrazlar birgalikda qoshilgan va ayri holda ham uchrashi va bir birini taqozo qilishi mumkin.

Demak, badiiy asardagi badiiy vositalar o'xshatish, mubolag'alarga nisbatan ham bu termini qo'llash mumkin. Badiiy obraz qilib, ma'lum bir davr ham olinishi va davrning to'liq tasviriy ifodasi o'sha davr manzarasi o'quvchi ko'z o'ngida to'la qonli gavdanalishini ta'minlaydi.

METODOLOGIYA

Badiiy obraz, real hayotdan tashqari to'qima obraz bolishi ham mumkin. Bunda asosiy masala, o'quvchiga badiiy obrazning naqadar ishonchli va mantiqiylikida bo'ladi. Badiiy obraz qay darajada mantiqqa yaqin yohud real hayotda qisman, yoki umuman bo'lgan bo'lganligi emas, auditoriyaga obraz va gavalangan tasvir naqadar ishonchiligi asarrining ta'sirchanligini va ijodkorning mahoratini ko'rastib beradi. Badiiy obrazning yaratishdan doimo muayyan maqsad bo'lib, inson obrazi orqali fe'l-atvor, zamon va makon hodisalarini ham o'z maqsadiga muvofiq namoyon etadi.

Shu o'rinda obrazlarni turli kategoriyalarga bo'lish mumkin. Umuman olganda, badiiy obrazlar asar janridan kelib chiqib, takrorlanish chastotasi o'zgarishi mumkin. Ular quyidagilar:

1. Realistik obrazlar;
2. Majoziy (simvolik) obrazlar;
3. Romantik obrazlar;
4. Hayolij fantastik obrazlar.

Tasavvufiy adabiyotdagi realistik obrazlar, ustoz, piru -komil, shogird, murid, Payg'ambarlar obrazlarini keltirishimiz mumkin. Bu ushbu obrazlarning, real hayotga mos kelishi va real voqeliklarda namoyon bo'lishi bilan ifodalash mumkin.

"Gulshani Roz" asarining 6-savol javobida Shabistariy Ibrohim payg'ambari obraziga to'xtalib o'tar ekan, "Oy, quyosh va yulduzlarning ilohiyligidan sezgi, tasavvur va aqlni huddi Ibrohimdek ajratib olish kerak" deb ta'kidlaydi [10].

"Gulshani Roz" ning Edvard Uindfield tomonidan qilingan tarjimasida ham Odam, Muso, Nuh, Idris, Iso, Muhammad payg'ambarlar, Maryam ona, avliyo Mansur, Zardushtiyliklik ilohlari Yezdan va Ahriman, Attor obrazlariga ko'p marta murojaat qilingan [6].

Asarni yaratilishi 13 asrga borib taqaladi. Bundan kelib chiqadiki, tasavvuf adabiyotining boshlang'ich namunalaridan biri sifatida "Gulshani Rozda"dagi Payg'ambarlar va aziz- avliyolar obraziga yaqindan murojaat keyin sufiy she'riyati yohud adabiyoti uchun muhim hodisa sifatida, asarlarning yanada ta'sirli va ibratli bo'lishiga xizmat qilgan.

Masalan, Navoiyning "Layli va Majnun" dostonining 3-bobi Muhammad payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan. Bu bobda Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v)ni risolat sipehri (payg'abarlik osmoni) ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o'xshatadi. Kitobot san'ati vositasida payg'ambarlik muhri – hotamning "I" – "alif" va "ت" – "te" sida uning oti yashiringanini aytadi:

*Ul muhri xututi vasfi zoting,
Xotam "alif"iyu "te"si oting.*

Navoiy na'tni Payg'ambar va uning oilasiga yuz ming salavotu vasflar aytish bilan yakunlaydi.

Nizomiy Ganjaviy madhida talmeh san'atining yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga o'xshatiladi:

*Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo [2].*

Keyingi obraz turi majoziy obrazlar bo'lib, majoziy obrazlar muayyan narsa hodisalarning qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir [1]. Jumladan so'fiyona dabiyotda, yor yohud oshiq, mashuqa, gul, sharob, gulzor obrazlarini keltirishimiz mumkin. Ya'ni, yor Hudoni ifodalovchi timsol sifatida, Gul – sir, sevgi izhori, mehr razmi sifatida, sharob – sevgi-muhabbat, muhabbatdan sayhushlik kabi hodisalarni ifodalasa, gulzor, gulbog' ramzlari – oshiyon, sirli makon razmi sifatida keltiriladi. Bundan tashqari, tubsiz ummon, duru- javohir, charxu-falak, vayrona kulba, shoxona saroy kabi noinsoniy obrazlar ham ma'lum razm sifatida majoziy xarakterga ega bo'lib, tasavvuf adabiyotida bularning o'rne beqiyosdir. Ularning bari komillik sufi dunyosini butunligicha tasvirlash uchun xizmat qiladi. Tubsiz ummon- chegarasiz bilimlar dunyosi, duru-javoxir – egallagan va egallab ulgirmagan bilimlar xazinasi, charxu falak- taqdir va g'ayrioddiy hodisalar, vayrona kulba – g'arib va mazlum ko'ngli, shoxona saroy esa ba'zi hollarda oshiq, piru komil qalbi, dunyosi yoki hursandchilik makoni deb sifatlanishi kuzatiladi.

Golland sharqshunosi Johannes Tomas Piter Deverven to'g'ri ta'kidlaganidek, "fors so'fiy she'riyatining xizmatlari bilan 14-asrning boshidan unda so'fiylik madaniyatida majoziy obrazliklik to'liq shakllangan". Va buning eng yaxshi namunasi sifatida u Mahmud Shabistariyning "Gulshan-i roz" iga ishora qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ramzlar va obrazlar o'rtasida sezilarli farq mavjud. Timsol, so'fiylikni maxsus o'rgangan olimlarning fikriga ko'ra ramziylik, bu obraz rivojlanishining eng yuqori nuqtasidir. U alohida-alohida ifoda etmaydi tushunchasi qabul qilingan, lekin ko'p qatlamli g'oyalarni o'quvchiga etkazadi. Masalan, "maj" (kosa), Shabistariyning fikricha, so'fiyning ichki dunyosi bo'lib, u dunyoviy vasvasalardan tozalangan. Buni Haqiqatni bilgan komil inson yuragi deb ham tushunish mumkin. Shabistariy sharhlagan qahramonlarni ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Alohida so'fiyni o'rab turgan narsalar, masalan, sham, piyola, qadah, sharob, butler, tavern va boshqalar.

2. Muayyan qismlarga ishora qiluvchi so'zlar go'zallik portreti – yuz, ko'zlar, qoshlar, kirpiklar, lablar, kokil, mol va boshqalar. Shabistariyning fikricha, ilohiy kamolot sifatleri diskret holatda shu yerda, Koinotning o'zidadir. Faqat insonda ular birga yig'iladi va "jamlanma"da bo'lgani kabi eng adekvat tarzda gavdalantirilgan. [8] Shuning uchun insonda Mutlaq o'zini butunligi bilan anglab yetadi: inson go'yo unga aylanadi o'z-o'zini bilish, "Xudoning surati" tasavvur qila boshlaydi.

Demak, Shabistariy bu borada ochiq signal beradi.

*... Bu sen va senda Ollohning surati bor,
O'zingdan nima istasang baribi qidir [4].*

"Gulshani Roz" asari to'g'ridan to'g'ri Xudo obrazini yuklasak rivojlantirgan va ham ramziy va majoziy ham hayoliy obrazlar qolipida yoritilgan sanoqli asarlardan biridir.

Tasavvuf adabiyotda yana bir obraz turi borki, uni ham obyektiv ham subyektiv qabul qilish mumkin. Bu tur romantik obrazlar turidir. "Romantik obrazlar odatda

ijodkorning orzu – hayollari istaklarini ifodalash uchun badiiy vosita sifatida ko‘p hollarda badiiy to‘qima yordamida yaratiladi” [8]. Romantik obrazlarga yorqin misol qilib, “Hamsa” dostonidagi Farxod, Majnun obrazlarini, Rumi va Umar Hayyom masnaviylaridagi sevgan oshiq yigit obrazlarini yaqqol keltirsak bo‘ladi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri ham orzu hayollar mahsuli bo‘lgan razmiy obraz, ham real qahramon bo‘la olishi bilan yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.

Farxod va Shirin dostonida ijodkor o‘zining orzularini gavlantirish uchun Farxod obrazidan foydalanadi va uning ayrim hatti -xarakatlari real hayotga unchalik to‘g‘ri kelmagan taqdirda ham o‘quvchini zavqlantirish va Farxod obrazi orqali istaklarini korsatish xarakter qilgani aniq. Bu Orinda Farxodning mashaqqat bilan ariq qaziganda aytkan so‘zlari:

Hunarni adrabon netgundir oxir

Olib tuproqqami ketkundir oxir

deb o‘z ishini tashlab boshqa mehnat qilyotkan odamlarga yordamlashish uchun krishib ketadi va ularni oldidan indamay o‘tib ketolmaydi. Bu orqali ijodkor Farxod obrazidagi insoniylikni ko‘rsatib beradi.

Shu o‘rinda, aynan tasavvuf adabiyotida ikki obraz turning bir birini taqozo etishi va bazi hollarda obrazlarning aynan qaysi turga kirishini muayyan aniqlashda muammolarga duch kelish hollarni ko‘rishimiz mumkin. Ijodkor bir obrazni ham majoziy obraz sifatida ham romantik unsurlar bilan xarakterlashi tasavvuf adabiyotining boshqa adabiyot shakllaridan eng katta farqli xususiyati sifatida keltirish mumkin.

“Gulshani Roz”ga keladigan bo‘lsak, asarda romantik obrazlar asosan bir birini taqozo etuvchi *oshiq* va *murid* obrazlarini keladi.

Bir lahzada o‘tib ketadi bu dunyo,

Uyda haqiqatdan o‘zga qolmaydi.

O‘sha paytda yaqinlikka erishasiz,

Siz o‘zingizdan mahrum bolasiz

Va Oshiq bilan qovushkan bir on [4]

Romantik obrazning eng yorqin namunasi “Majnun” hisoblanadi va Navoiy bu borada g‘oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g‘oyasi bilan bog‘liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo‘lib ko‘rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

Ey har sorikim, qilib tajalli,

Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin. [12]

Yuqoridagilardan shu ma‘lum bo‘ladiki, Oshiq obrazi eng birlamchi romantik obrazi hisoblanib, boshqa adabiyot turlaridan farqli ravishda, tavassuf adabiyotida romantic oshiq obrazi, doimo o‘z ma‘nosida kelavermaydi va aksincha bu razmiy majoziy sifatga ega bo‘lib, ko‘p hollarda Alloh ishqida Majnundek o‘zini unitkan taqvodor inson ma‘nosida keladi.

Hayoliy fantastik obrazlar bir qarashda romantik turga o‘xshab ketkani bilan, eng asosiy farq bundan obrazning inson qo‘lidan kelmaydigan hatti xarakatlarni amalga oshirishi ifodalanadi. Fantastik obrazlar tasavvuf adabiyotida kam uchrash sabab obrazga bo‘lgan o‘quvchining munosabatini sof va to‘g‘ri yo‘lda saqlab qolishdadir [4]. Fantastik

obrazlar asosan Alpomish, Kenja Botir kabi folklor namunalarida ko'plab uchratish mumkin. Biroq, tasavvuf adabiyoti ham bundan mustasno emas.

Tasavvuf adabiyoti turli tillardagi tasavvuf g'oyalarini ifodalovchi va targ'ib qiluvchi asarlardan iborat. Tasavvuf O'rta Asr adabiyotiga, ayniqsa arab, fors, turkiy va urdu tillarida yozilgan she'riyatga muhim ta'sir ko'rsatdi. So'fiylik ta'limotlari va tashkilotlari adabiyotga o'sha davr saroy she'riyatidan ko'ra ko'proq erkinlik bergan. So'fiylar o'z adabiyotlarida xalq og'zaki ijodi unsurlarini o'zlashtirganlar [7].

Nizomiy, Navoiy, Hofiz, Sam'oniylar, Jomiy, Shabistariy ijodi so'fiylik bilan bog'liq edi. Sanoiy (vafoti 1140-yil), Attor (1119-yilda tug'ilgan), Rumi (1273-yilda vafot etgan) kabi so'fiy shoirlarning baytida ilohiy adolatga urg'u berib, zulmga qarshi norozilik bildirilgan, yovuz hukmdorlar, diniy aqidaparastlik, pravoslav musulmon ruhoniylarining ochko'zligi va ikkiyuzlamachiligi tanqid qilingan. Bu yozuvchilar qo'llagan she'riy shakllar xalq qo'shig'i, masal va ertakga o'xshash edi.

Shabistariy o'z asarida Xizr alayhissalom, Iblis, Majusiy, Jabroil, Vodiy, Samo, Do'zax kabi hayoliy fantastik va o'z navbatida ilohiy fantastik obrazlar qorishiq ravishda berilganini ko'rishimiz mumkin. U o'z hayotini shunday ta'riflaydi:

Bir mavsumga Tinchlik vodiysiga keling,

Valiy ila "Men Xudoman" degan xitobni eshitib [6].

XULOSA

Yuqorida biz eng asosiy badiiy obraz turlari va ularning tasavvuf adabiyotidagi tavsifini misollar yordamida ko'rib chiqdik. Xususan, "Gushani Roz" asarida obrazlar kompozitsiyasi muhim o'rin tutadi. Chunki aynan obrazlar tilga kirib, asar izchilligi va mantiqiyligini ta'minlagan. Biroq obrazlar tasnifi boshqa adabiyot turlariga qaraganda tasavvuf adabiyotida birmuncha xususiyati bilan ajralib turadi. Buni yuqoridagi misollarda ham ko'rdik.

FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulhakim Sha'riy Jo'zjoniy. Tasavvuf va Inson. Adolat. 2001.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1992. 9-jild.
3. Aristotel. Poetika. T. Adabiyot va San'at – 1980
4. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. NamDU. 91-bet.
5. E. Bertels. Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti. Nauka. 1965. 15- bet.
6. E. Uindfild. Mahmud Shabistariy. Gulshani Roz. 8-bet.
7. H.Boltaboev. Sharq mumtoz poetikasi: Manba va talqinlar. 1-kitob. / Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
8. I. Sultonov. Adabiyot nazariyasi. T. O'qituvchi., 1986. 62-bet.
9. Mahmud Shabistariy. Gulshani Roz. 11: 52 -bet
10. M.M. Sharif. Musulmon falsafasi tarixi. 2- jild. 1966. Wiesbaden. 841- bet
11. MOHAMMADIBAGMOLLAI MUHAMMADKAZEM KARIM. MAHMUD SHABISTORI VA UNING "GULSHAN-I ROZ" SHE'Rining FORS-TOJIK ADABIYOTI tarixidagi o'rni. Dushanbe. 2019. 17- bet.
12. T. Ahmedov. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni. – T.: Fan, 1970. 49- bet.